



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___ *-umumiy o'rta ta'lim maktabi*
tarix fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 8-sinflar uchun
IV chorak O'zbekiston tarixi fanidan

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 8-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan IV chorak
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Sulton Husayn Mirzo	1		
2.	Amir Temur va temuriylar davrida iqtisodiy munosabatlar	1		
3.	Amir Temur va temuriylar davrida iqtisodiy munosabatlar	1		
4.	Ikkinchi Renessans asoschilari	1		
5.	Ikkinchi Renessans asoschilari	1		
6.	Temuriylar davri me‘morchiligi	1		
7.	Temuriylar davri me‘morchiligi	1		
8.	7-Nazorat ishi	1		
9.	Xattotlik va miniatyura	1		
10.	Xattotlik va miniatyura	1		
11.	Temuriylar davrida hunarmandchilik	1		
12.	Temuriylar davrida hunarmandchilik	1		
13.	Alisher Navoiy	1		
14.	Alisher Navoiy	1		
15.	8-Nazorat ishi	1		
16.	Yakuniy umumlashtiruvchi dars	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Sulton Husayn Mirzo

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilish, qiziqishini ortirish, uzoq o'tmish, o'z xalqi va mamlakati tarixi haqida tushuncha berish, tariximizni o'rganish mobaynida, qalblarida faxr va iftixor tuyg'ularini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga ajdodlarimiz barpo etgan ulkan madaniyat namunalaridan tortib, oddiy xo'jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo'lgan voqealar mustaqil ishlashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, ajdodlarimizning jasorati, amalga oshirgan buyuk ishlari, qalblarida vatanparvarlik hissini uyg'otish, Vatan manfaatlarini himoya qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'z Vatanimiz tarixini bilishi va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatini hurmat bilan qarashi, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish; xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish

hamda foydalanish kompetensiyasi:

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish;

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa

6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism:

a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash:

a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

1458-yilda 300 kishilik qo‘shin bilan Niso viloyati, so‘ng Astrobodni egallagan. Sulton Husayn Mirzo Xuroson va Xiva oralig‘idagi hududlarni egallashga bir necha bor harakat qildi. 1463–1464-yillarda Urganch, Xiva, Hazorasp, Tirsakni qo‘lga kiritdi va shu yerda kuch to‘plab, Xurosonga yurish qildi. Temuriy larning bu vaqtdagi eng yirik hukm dori Abu Said halok bo‘lgach (1469), Hirotni qo‘lga kiritdi. Samarqanddan do‘sti

Alisher Navoiyni maxsus yorliq bilan chaqirib olib, uni muhrdorlik vazifasiga tayinladi. Navoiy do‘stini taxtga chiqishi bilan qutlab, unga “Hiloliya” qasidasini taqdim etdi. Shohrux Mirzoning avlodlaridan Yodgor Muhammad Mirzo 1470-yilning iyulida Sulton

Husayn Mirzo poytaxtda yo‘qligidan foydala nib o‘zining nomiga xutba o‘qitib oldi. Navoiy ning tadbirkorligi sabab Yodgor Mirzo qo‘lga olindi. Sulton Husayn Mirzo Xorazm, Seyiston, Qandahor, Balx, G‘aznadan Damg‘ongacha bo‘lgan yerlarni boshqargan. Biroq hukmronligining so‘nggi yillariga kelib mayxo‘rlikka ruju qo‘ydi.

Saroyda fisq-u fasod kuchaydi. Hatto shohning mastligidan foydalanib Badiuzzamonning o‘g‘li, eng sevimli nabirasi Mo‘min Mirzoning qatl etilishi haqidagi farmonga muhr

bostiradilar. Sulton Husayn Mirzo Mo‘min Mirzoga juda ishonardi. Mendan keyin taxtga munosib shoh bo‘ladi deb doim unga yon bosardi. Sulton Husayn Mirzo hushini o‘nglab olgach, qilgan ishidan qattiq afsuslandi va aybdorlarni jazoladi. Badiuzzamon esa o‘g‘li uchun otasidan qasos olishga qaror qildi. Beayb Mo‘min Mirzoning to‘kilgan qoni tufayli mamlakatda parokandalik yuzaga keldi. Bu siyosiy vaziyat keyinchalik Shayboniyxonning Xurosonga yurishi uchun qulay imkoniyat bo‘ldi. Sulton Husayn Mirzo 1506-yilning bahorida yurak xastaligidan vafot etadi. Uning jasad o‘zi qurdirgan madrasa ichidagi maqbaraga dafn etilgan. Hozir maqbara vayron bo‘lgan, biroq qabr va uning ustiga o‘rnatilgan tosh saqlanib qolgan. Sulton Husayn Mirzoning 14 o‘g‘il, 11 qizi


bo‘lgan. Sulton Husayn Mirzo va saroy amaldorlari ning maishatga berilib ketishi oqibatida Xuroson davlati zaiflashgan. Uning vafotidan so‘ng, 1507-yili Hirotni shayboniylar zabt etgan. Sulton Husayn Mirzo badiiy ijod bilan shug‘ullanib, g‘azalnavis shoir sifatida adabiyot tarixida iz qoldirgan. O‘ttiz besh yildan oshiq hukmdorlik davrida Sulton Husayn Mirzo katta bunyodkorlik ishlarini ham amalga oshirgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Sulton Husayn Mirzoni bunday farmon chiqarishga nima majbur etgan?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.



Sulton Husayn Mirzoning taxtga o‘tirish marosimi.
XV asr miniatyurasi.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Amir Temur va Temuriylar davrida iqtisodiy munosabatlar

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilish, qiziqishini ortirish, uzoq o'tmish, o'z xalqi va mamlakati tarixi haqida tushuncha berish, tariximizni o'rganish mobaynida, qalblarida faxr va iftixor tuyg'ularini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga ajdodlarimiz barpo etgan ulkan madaniyat namunalaridan tortib, oddiy xo'jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo'lgan voqealar mustaqil ishlashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, ajdodlarimizning jasorati, amalga oshirgan buyuk ishlari, qalblarida vatanparvarlik hissini uyg'otish, Vatan manfaatlarini himoya qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'z Vatanimiz tarixini bilishi va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatini hurmat bilan qarashi, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish

hamda foydalanish kompetensiyasi:

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish;

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Amir Temur soliq siyosatini mamlakat boshqaruvi va rivojining asosiy yo‘na lishi deb belgilagan. Bu davrda yerdan olinadigan soliqning asosiy turi xiroj hisoblangan. Bu soliq mahsulot yoki pul bilan olingan. Bu davrda soliqlarni hisoblash qoidalari ham ishlab chiqilgan. Xiroj ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig‘ilgan. Uzluksiz ravishda koriz, buloq va daryo suvi bilan sug‘oriladigan ekin yerlaridan olinadigan hosilning ikki hissasi egasiga qolgan, bir hissasi oliy saltanat xazinasi uchun olingan. Lalmikor yerlardan soliq olishda uchdan bir va to‘rttdan bir qoidasiga amal qilingan. Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solib qo‘yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag‘allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi. Sipohning tarqoqligi o‘z navbatida saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi.

Amir Temur yuritgan soliq siyosati o‘z davriga nisbatan soliqqa tortishning eng ilg‘or g‘oyalarini ifodalay olgan. Soliqlarning davlatni mustahkamlashdagi ahamiyati hisobga olinishi bilan birgalikda soliq to‘lashga layoqatli soliq to‘lovchilar bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Hosil to‘la pishib yetilmasidan soliq to‘plash qat‘iyan man etilgan. Soliqlar hokimiyat tomonidan belgilab qo‘yilgan uch muddatda: saraton (iyun – iyul), sumbula-mezon (avgust sentyabr) va qavs (noyabr) oylarida to‘planar edi. Soliqlardan tashqari ziroatkor aholi hukmdor va uning ma‘murlari, suyurg‘ol egalari va tarxonlar, shuningdek, yirik mulkdorlar foydasiga muayyan muddat tekin ishlab berardilar. Harbiy yurishlar davrida mag‘lub etilgan aholidan sari shumor (jizya) solig‘i olingan. Davlat xavf ostida qolib, harbiy safarbarlik e‘lon qilingan paytlarda favqulodda soliq – avorizot yig‘ib olingan. Mamlakat hududidan chopar yoki elchilar o‘tayotganda, zarurat tug‘ilganda, aholi ularga ot-ulov topib berishi lozim bo‘lgan. Amir Temurgacha xazinani idora qilish faqat dargoh tamoyiliga asoslangan bo‘lsa, u dargoh va vazirlik tamoyillarini qo‘shib olib bordi. Xazina daromadlari solikli va soliqsiz daromadlarga ajratildi. Xazina xarajatlari tarkibida obodonchilik, ijtimoiy-madaniy, shu jumladan, fan, madaniyat, ijtimoiy ta‘minot xarajatlarining hissasi ortib bordi. Bularning hammasi mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlanishiga, uning xalqaro mavqeyi oshishiga ijobiy ta‘sir etdi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi uchun qanday siyosat zarur?
2. Soliqlarning davlat rivojiga qanday ta‘siri bor deb o‘ylaysiz?
3. Soliqlarsiz ham davlatni rivojlantirish mumkinmi? Nima uchun?
4. Pul munosabatlarini shakllantirish uchun davlatning iqtisodiy-siyosiy mavqeyi qanday rol o‘ynaydi?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)



Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

34 listdan iborat O‘zbekiston tarixi fanidan 8-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**